

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14636285>

OILADA TARBIYA ASOSINING AHAMIYATI

Berdiyeva Sadoqat Eshonqul qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

Dustmirzayeva Flyura Shuxrat qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya. Maqolada “Oilada tarbiya asoslari” tushunchasi, farzand shakllanishida oila a’zolarining o’rni va ahamiyati, farzandni mustaqil shaxs sifatida tarbiyalash hamda oila tarbiyasida diniy qarashlar mavzusi yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar: Oila, oilaviy muhit, farzand tarbiyasi, tarbiya turlari, nazorat, oilada ota-ona munosabati, Oila tarbiyasi.

ЗНАЧЕНИЕ ОСНОВ ВОСПИТАНИЯ В СЕМЬЕ

Бердиева Садоқат Эшонқул қизи

Преподаватель Университета экономики и педагогики

Дустмирзаева Флюра Шухрат қизи

Студент экономико-педагогического университета

Аннотация. В данной статье раскрывается понятие «Основы семейного воспитания», роль и значение членов семьи в формировании ребенка, тема воспитания ребенка как самостоятельной личности и религиозные взгляды в семейном воспитании.

Ключевые слова: Семья, семейная среда, воспитание детей, типы воспитания, контроль, родительские отношения в семье, Семейное воспитание.

THE IMPORTANCE OF THE BASIS OF EDUCATION IN THE FAMILY

Berdiyeva Sadoqat Eshonqul qizi

Lecturer at the University of Economics and Pedagogy

Dustmirzayeva Flyura Shuxrat qizi

Student of the University of Economics and pedagogy

***Abstract.** In this article, the concept of "Fundamentals of family education", the role and importance of family members in the formation of a child, the topic of raising a child as an independent person and religious views in family education are explained.*

***Key words:** Family, family environment, child rearing, types of rearing, control, parental relationship in the family, Family rearing.*

Dunyoda hamma narsa juft-juft yaratilgan: oy va quyosh, kecha va kunduz, yer va osmon, erkak va ayol, musbat va manfiy va hokazo. Mavjudotlar hayotda mana shu juftlik bilangina barqaror bladilar. Inson oilada tugʻilib, ulgʻayadi, shaxs sifatida shakllanadi.(1)

Ajdodlarimiz Yusuf Xos Hojibning “ Qutadgʻu bilik”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Alisher Navoiyning “Mahbub-ul qulub ” Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yohud ahloq” kabi qimmatli asarlari asosida oʻz maʼnaviy – axloqiy hayotlarini qurishgan, shu asarlarga asoslanib farzand tarbiyalashgan. Yoshlarning qalbi va ongida sogʻlom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuygʻusini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga oʻz umri va salohiyatini bagʻishlagan allomalarimizning asarlarida sogʻlom avlod tarbiyasi bilan bogʻliq masalalarga alohida oʻrin berilgan. Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Maxmud Qoshgʻariy, Kaykovuslarning gʻoyaviy jihatdan

birlashtirgan asos shu bo'lganki ular shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo'yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va ahloqiy kamolotida oilaning o'rni, ota-ona va yaqin kishilarning yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor berganlar. Zardushtiylikning qadimiy kitobi "Avesto"da ham oila muqaddas dargoh ekanligi, oila barqarorligida er va xotinning teng mas'ulligi, farzand tarbiyasi to'g'risidagi fikrlar bayon etilgan.

Oila-yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch — oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlash asosiy jihatdir. Oila qanchalik tartibli, uning a'zolari o'rtasidagi munosabat samimiy bo'lsa, oila tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi. Oila tarbiyasida ota-ona obro'si, ularning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavobligi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Oila tarbiyasida tarbiya jarayoni zerikarli, quruq nasihatgo'ylikdan iborat bo'lib qolmasligi lozim. Bola hayotining ko'p qismi oilada o'tadi. Shu boisdan mavjud an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta'sirida bola asta-sekin kamol topib boradi. An'ana va marosim Oila tarbiyasining qudratli qurolidir. Oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lsagina, kutilgan natijalarga erishish mumkin. Oila tarbiyasida yutuqlarga erishish ota-onalarning pedagogik bilimlarga egaligi, oila tarbiyasi bo'yicha tajribalar almashishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg'in jalb qilishga ham bog'liqdir. Har bir ota-ona oila tarbiyasida o'zlarining burch va mas'uliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Normal oilaviy muhit, bolani kitob o'qishga, mehnat qilishga o'z vaqtida jalb etish ham Oila tarbiyasining muvaffaqiyati garovidir.

Oila tarbiyasining barcha turlarida - munosabat eng asosiy poydevor vazifasini bajaradi. Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab,

otaonalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xusan farzandlarning bevosita ta'siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi. O'zaro aloqalari mazmuni boyib boradi. Real hayot mohiyatini chuqur anglash ya'ni farzandlar kamoloti kelajagi timsolida o'z umri davomiyligi farovonligini qurish holati ro'y beradi. Oila a'zolarining ma'naviy sifatlarga ega bolishi, unda ma'naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bolishida oila tarbiyasi asosiy vazifani bajaradi, Oilada qaror topgan sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun beqiyos ahamiyatga egadir.

Farzand oilaning jamiyatning yuzi. Farzandning tarbiyasi, axloqi, dunyoqarashi go'zal bo'lsa, undan aqlli, mehribon, mustaqil - ona, ishbilarmon, jasur, qo'rqmas, vijdonli - ota, muhimi, iymonli, yetuk insonlar yetishib chiqadi. O'z-o'zidan ma'lumki, bunday insonlar ma'naviyatli, madaniyatli jamiyatini yuzaga keltiradi va barchaga o'rnak bo'ladi. Shunday ekan, farzand ota-onaning biznes loyihasi bolishi kerak emas. Farzand bu dunyoga umidlarimiz ushalishini ta'minlash va bizning qoidalarimiz boyicha yashash uchun kelmaydi. Uning ham hayotda o'zining vazifalari bo'ladi. Shu ma'noda, farzand - bu bizning faqatgina davomchimiz emas, balki mustaqil shaxs hamdir. Bolaga alohida shaxs sifatida qarab, unga ishonch bildirish, mustaqil qo'yish mihimdir.(2)

Oiladagi muhit ota-ona o'z mas'uliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo'ladi. Bolalarning odobli bo'lib ulg'ayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir. "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deb bejiz aytmagan xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida oliyjanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o'z odatlari bilan ba'zan o'zlari sezmaganda holda ularga ta'sir qiladilar. Oiladagi qo'pol munosabatlar, ko'p yolg'on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan nosog'lom muhitni keltiribchiqaradi(3).

Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o'rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib, kaltak yeb katta bo'lsa, bu uning tabiatiga

salbiy ta'sir qiladi. Bu esa o'z navbatida oiladagi nosog'lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan "ma'naviy kasal" insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma'naviyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oilada ota-onalar "ommaviy madaniyat" ta'siriga berilib ketishi oqibatida farzandlarning tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ota-ona bolada estetik tarbiya, go'zal manzaralardan zavq olish hissini shakllantirish uchun uni o'zi bilan birga tabiatdagi manzarali joylarga, muzeylarga olib borishi va shu bilan birga uning qalbida go'zallik latofatini singdirishi muhim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mustahkam ma'naviy yetuk, o'zining fikrlarini ravon ayta oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-ona, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. Hech kimga sir emas, insonning qalbi va ongini egallash, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy dunyosini zaharlashga qaratilgan turli xavf-xatarlar ham kuchayib borayotgan bugungi kunda o'zining kimligini, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, imon-e'tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta'sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo'ladi. Farzandlarimizga shunday tarbiya beraylikki, ular o'z ota-bobolariga, milliy merosiga, urf-odatlariga, millati, diniga va an'nalariga hurmat hissi ila kamol topishsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. U.Alimov ,” Oilada farzand tarbiyasi”, T.,” Movarounnahr”, 2017.
2. Sh.S.Aytdjanov, B.A. Mirsalixov,” Tarbiya – inson hayotida muhim omilidir”. Talaba – yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammolari (Respublika ilmiy – amaliy anjuman materiallari) 24-25 noyabr, 2018.
3. Berdiyeva, S. (2024). IMPROVING THE METHODOLOGY OF PREPARING STUDENTS FOR CREATIVE ACTIVITY BASED ON FOREIGN EXPERIENCES. Talqin va tadqiqotlar, (28).
4. Amrullayevich, M. S. (2024). BOSHLANG ‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KONGRUENTLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 448-452.
5. Berdiyeva, S., & Erkinov, E. (2024). TALABALARNI XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA KREATIV FAOLIYATIGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. " Science Shine" International scientific journal.
6. Berdiyeva, S., & Baxriddinov, M. (2024). BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA CHET TILI O ‘QITISHDA QO ‘LLANILADIGAN ZAMONAVIY INTERFAOL METODLAR. " Science Shine" International scientific journal.